

FARG’ONA VILOYATI MEHNAT RESURLARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Shermatova Zilola Qahhorjon qizi

Farg’ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Farg’ona viloyati mehnat resurslari, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, hududlarning demografik holati tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: mehnat resurslari, demografik holat, tug’ulish ko’rsatkichi, migratsiya, tabiiy geografik omillar, iqtisodiy-ijtimoiy omilar, sanoatlashuv, xizmat ko’rsatish.

Mamlakatda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish, aholi bilan muloqot tizimini yo’lga qo’yish, aholi turmush darajasi va bandligini oshirish, hududlarni jadal va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4804-sonli qarori bu ishlarning uzviy davomiyligini tasdiqlaydi.

Mehnat resurslarini sotsial tahlil etishda aholi sonining o‘sib borishi, uning hududiy harakati, mehnat resurslarining sotsial-demografik tarkibini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi [3].

Mehnat resurslarining shakllanishiga bir nechta omillar ta’sir etadi.

Tabiiy-geografik omillar. Aholi qadimdan o’zi uchun qulay hududlarda yashab kelgan. Daryolarning bo’yi qadimdan aholi bilan zich bo’lgan. Yashash noqulay hududlarda esa aholi siyrak joylashgan. Hududning iqlimi, relyefi, tabiiy geografik

o'rni aholi joylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omilardan hissoblanadi. Mesopatamiya, Nil daryosi sohillari, Amudaryo va Sirdaryo sohillari buning yaqqol isbotidir.

Demografik omillar. Mehnat resurslaridan foydalanishning muhim mezonlaridan biri – bu aholining mehnatga faolligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholining salmog'idir. Demografik jarayonlardagi, aholining jinsiy-yosh tarkibi va oilaning katta-kichikligi, aholi harakatidagi, shuningdek, mehnat malakasidagi, xo'jalik yuritish shakllari va aholining hamda aholi manzilgohlarining joylashuvidagi muhim hududiy tafovutlar millatlarning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

Jamiyat taraqqiyoti davomida tug'ilish tarixiy davrlar va hududlar bo'yicha muntazam o'zgarib kelgan. Ko'pbolalik jamiyat davlat tomonidan ham qollab-quvatlangan. Eng awal oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Hatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi-yangi shaharlar paydo boldi. Ko'pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharga ko'chib kela boshladi. Shahar aholisining o'sib borishi natijasida bir tomondan shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan fan texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi.

Farg'ona viloyatida tug'ulish darajasi 2014-2018-yillar oralig'ida deyarli o'zgarmagan. Ya'ni 22 promille atrofida (1000 kishiga nisbatan). 2018-2020-yillar oralig'ida esa bu ko'rsatkich 24,6 promillega o'zgargan. 2020 yilning yanvar-mart oylarida 18,7 ming ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), 2021 yilning mos davriga 16,9 mingta bola tug'ilgan, 2021 yilning yanvar-mart oylarida 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,0 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga

nisbatan 1,4 promillega ortgan). Tugʻilish koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan Uchkoʻpik tumani (19,5 promilledan 22,8 promillega) va Dangʻara tumani (19,8 promilledan 22,6 promillega) sezilarli oʻsgan boʻlib, deyarli barcha shahar va tumanlarda oʻsish kuzatildi. Mehnat resurslarining tadrijiy oʻsishi mehnatga layoqatli yoshga yetgan va shu kategoriyadan chiqib ketayotgan kishilar sonining nisbatiga bogʻliq. Aholi yuqori surʻatlar bilan oʻsganda va uning absolyut koʻpayishi roʻy berganda mehnatga layoqatli yoshga oʻtayotgan kishilarning miqdori har bir keyingi yilda mehnat resurslarining tabiiy kamayishidan sezilarli 92 darajada ortiq boʻladi, natijada, mehnat resurslarining soni koʻpayadi, aholi past surʻatlar bilan oʻsganda esa buning teskarisi boʻladi.

Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga koʻchishi - **migratsiyasini** ham oʻrganadi.

Qayd etish lozimki, tashqi migratsiyada eng avvalo shahar aholisi qatnashadi. Binobarin, migratsiyaning salbiy oqibati ham aynan shaharlarda va, jumladan, rusiyzabon xalqlar koʻproq joylashgan sanoat markazlarida kuzatiladi [4].

Respublikada mehnat resurslarining soni koʻp, biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tugʻilish va tabiiy koʻpayishning yuqoriligidadir. Natijada, “demografik yuk” eki mehnatga laʼqatli aholi bilan mehnatga laʼqatsizlar nisbati oʻziga xos. Masalan, agar Boltiq dengiz boʻyi davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda, aksincha, 6 kishidan 2 eki 3 kishi ishlashi mumkin, xolos. Fargʻona viloyatiga oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, koʻchib kelganlar soni 2752 kishi, koʻchib ketganlar soni esa 3398 kishiga kamaygan. 2020 yilning 3 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Oʻzbekiston tumani (minus 121 kishi) va eng yuqori oʻsish darajasi Fargʻona 276 kishi) shaharlarida qayd etildi

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tizimlashtirishga koʻplab tadqiqotchilar harakat qilishgan. Yetakchi omillar orasida avvalo hudud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, aholining moddiy va madaniy rivojlanganlik darajasini oshishi aytib oʻtilgan. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligi umumiy ishdan tashqari vaqt va boʻsh vaqtning oʻsishiga taʼsir etadi. Mehnat faoliyati vaqtning ortishi servis va turizm sohasini keskin oʻzgarishiga olib keladi. Bundan tashqari nafaqadagilarning va

o'quvchilarning bo'sh vaqtini ham xisobga olish lozim. Takidlash lozimki, bo'sh vaqt budjeti juda farq qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi.

Tadqiq etilayotgan hududning sanoatlashish darajasi qay darajada ekanligi mehnat resurslarining shakllanishiga katta ta'sir etadi. Bunda hudud sanoatlashish darajasi yuqori holatda bo'lsa mehnat resurslariga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Farg'ona viloyatida sanoatlashish darajasi tumanlar bo'yicha turlicha. Viloyatda eng sanoatlashgan hudud Farg'ona shahri hisoblanadi. So'ngi paytlarda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlarning yaratilishi hududning sanoatlashish darajasining o'sishiga mehnat resurslarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

2021- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,9 %), Qo'qon shahar (10,4 %), Marg'ilon shahar (8,6 %), Uchko'prik tumani (6,5 %), Dang'ara tumani (4,2 %), Oltiariq tumani (6,1 %), Quva tumani (4,9 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,0 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,8 %), Bag'dod tumani (4,6 %), Rishton tumani (4,9 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Beshariq tumani (3,4 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,5 %), YOzyovon tumani (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va ularning asosiy daromadlaridan biri shu soha bo'lib kelmoqda. Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Buvayda tumaniga (110,5 foiz) to'g'ri keldi. Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg'ona shahri (29,7 foiz), Qo'qon shahri (12,0 foiz), Marg'ilon shahri (7,2 foiz), Buvayda (4,7 foiz) va Oltiariq (4,2 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So'x (1,8 foiz), Yozyovon (1,6 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xulosa. Har bir hududning mehnat resurslarini o'tganilayotganda ularning joylashuviga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish talab qilinadi. Farg'ona viloyati mehnat resurslarining joylashuviga ham yuqoridagi omillar ta'sirida shakllangan. Tadqiqot natijasida Farg'ona viloyatining So'x, Yozyovon tumanlari viloyatda sanoat

va hizmat ko'rsatish hajmining boshqa tumanlarga nisbatan pastligi aniqlandi. Eng yuqori ulushlar esa Farg'ona, Qo'qon shaharlari, Buvayda, Uchko'prik tumanlariga to'g'ri keladi. Bunga sabab aytib o'tilganidek tabiiy-geografik va iqtisodiy geografik omillardir. Bu hududlarda aholining bandligini oshirish va iqtisodiyotini yuksaltirish uchun bu hududlarda malakali ishchilarning joylashuviga qarab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tuman markazlarida hizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish talab etiladi. Ayollarning savodlilik darajasini oshirish, hududning imkoniyatlaridan to'la foydalanish tavsiya etiladi. Chunki Farg'ona viloyatining aholi bandligi bo'yicha imkoniyatlari yetarli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-sonli “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida” gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4804-sonli qarori
3. N.K.Komilova Sh.Z.Jumaxanov F.T.Rajabov: Inson geografiyasi. Toshkent «Universitet» 2018 .91-b
4. A.Soliyev: O'zbekiston iqtisodiy –ijtimoiy geografiyasi. Toshkent – 2014 . 31-b
5. Abdullaev U. Valixonova G: Farg'ona vodiysi aholisi: Etnik tarkibining shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi. T.:, Navroz, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/>